IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: RJ11382825

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2026-yil 9-yanvar 05/42-130-son

Oliy ta’lim tashkilotlariga
(ro‘yxat asosida)

Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyoda inklyuziv yashil rivojlanish dasturi doirasida O‘zbekistonda U-Solve dasturi ishga tushirildi va Yoshlar akademiyasi uning asosiy hamkorlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur dastur barqaror iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shuvchi innovatsion, texnologik va inklyuziv yechimlar ishlab chiqayotgan startaplarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

2026-yil 20-yanvar kuni U-Enter Innovatsion markazi konferensiya zalida (manzil: Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi 25) startap ekotizimi vakillari ishtirokida loyiha ochilishiga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Tadbirning asosiy maqsadi – dastur doirasida startaplar uchun imkoniyatlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari haqida ishtirokchilarni xabardor qilish, yoshlar startaplarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni targ‘ib etish, oliy ta’lim muassasalari bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish va ularni startap ekotizimiga faol jalb etishdan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ilovaga muvofiq oliy ta’lim tashkilotlaridan tegishli vakillarni ushbu tadbirda ishtirok etishga jalb etishda, shuningdek, har bir oliy ta’lim tashkilotidan ishtirokchining ma’lumotlarini mas’ul xodimga taqdim etilishida amaliy yordam ko‘rsatishingiz so‘raladi.

Ilova:_____varaq

Qo‘shimcha ma’lumot uchun mas’ul xodim:
Niyazov Timuriddin (+998 99 814 42 04)

Vazir kotibiyati boshlig‘i **I. Nematov**

Ijrochi: G.Iskandarova,
Telefon: 55-520-08-08 (369)